

TA'LIMY O'YIN - O'ZBEK TILIGA O'QITISH
VOSITALARIDAN BIRI SIFATIDA

Pozilova Aziza Mamajonovna

Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi

263- o'rta maktabning 1- toifali

O'zbek tili fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv jarayonida ta'limiy o'yinlarning qo'llanishi o'quvchining bilish qiziqishlarini o'stirish va nutqiy jarayonni faollashtirishning samarali usullaridan biri ekanligi haqida so'z boradi. O'yin davomida o'quvchining olgan bilim, ko'nikma va malakalari shakllanib borish bilan bir qatorda nutqiy kompetensiyalari ham rivojlanib boradi. Bu o'yinlarni tashkillashtirish albatta bolaning yosh xususiyatlarini ham inobatga olish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yin, o'yin faoliyati, o'yin vaziyatlari, ehtiyoj, rolli o'yinlar, ichki kechinmalar, bilish qiziqishlarini shakllantirish vositasi, o'quvchi faolligini oshirish vositasi, bilim, ko'nikma, malaka va nutqiy kompetensiya, diqqatning o'sishi, intizom, uyushqoqlik, mas'uliyat hissi.

Ma'lumki, ta'lim boshqa tilda olib boriladigan sinflarda o'zbek tilini o'rgatish jarayonining sifat va samaradorligini ko'tarish maqsadida yurtimizda ko'plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, o'qiyv jarayonida ta'limiy o'yilardan foydalanish masalasiga ham katta e'tibor beriladi. Chunki ta'limiy o'yin o'quvchini tilga o'rgatish, o'quvchida nutq ko'nikmalari va malakasini va nutqiy kompetensiyalarni hosil qilish vositasi vazifasini bajaradi.

O'yin - maktabgacha yoshdagi bola faoliyatining asosiy turi hisoblanadi. Maktab davrida o'yin faoliyati yo'qolmaydi, balki o'quv faoliyati bilan birgalikda bola faoliyatining qo'shimcha, ikkinchi darajali turi sifatida saqlanib qolaveradi.

Bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqishini yaxshi bilgan amaliyotchi-o'qituvchilar undan ko'p maqsadlarida foydalanishga harakat qilib, darslariga o'yin vaziyatlarini kiritadilar. Ba'zan esa darsning asosiy qismini o'yin ko'rinishida o'tkazadilar. Biroq, faoliyatning har qanday turi singari o'yin ham, ma'lum maqsadni ko'zlaydi. O'yin shartlari bola uchun tushunarli bo'lgan aniq mazmunga va o'yin harakatidan iborat ijro qismiga ega bo'lishi lozim.

O'yin jarayonida bolada biror nima deyish ehtiyoji yuzaga keladi. Bu esa bolaning muloqotda o'yin faoliyatida ishtirok etishga nisbatan bo'lgan ichki xohish-istagi natijasida paydo bo'ladi. Natijada bolada "begona tilda so'zlash uchun ichki motivning shakllaniushiga olib keladi. Demak, "Sanoat mollari do'konida" o'yinini o'ynash orqali "o'quvchi-xaridor" o'zi uchun zarur mahsulot yoki sanoat mollarining narxi, o'lchami

kabilar haqida so‘rab-surishtirishga, sotuvchi esa savollarga javob berishga va mollarini tavsiya qilishga majbur.

Bunday rolli o‘yinlarni o‘ynash vaqtida bolalar o‘z roli uchun chin dildan qayg‘uradilar, chunki bolalar uchun o‘zlari ifoda etayotgan shifokor, haydovchi, kema kapitani, ayiq yoki quyon obrazlariga kirish xususiyati xosdir. Bu xususiyat kichik maktab yoshidagi bolalarga ayniqsa katta huzur bag‘ishlaydi.

“O‘yin davomida rollarni bajarish bilan bogliq turli-tuman kechinmalarni kechirish bolalarni o‘ynashga undovchi asosiy miotiv, deb hisoblaydi psixolog olim Rubinshteyn. Masalan, bolalar sevib o‘ynaydigan “Bo‘ri bilan tulki” o‘yinida qizlar g‘oz rolini bajarib, dalada o‘tlab yurgan paytlarida tulki pusib kelib ulardan birini ushlab olishga harakat qiladi. G‘ozlar tulkidan qochadilar. Shu xatarning yuzaga kelishining o‘zi bolalarni kuchli hayajonga soladi. “Oq terakmi, ko‘k terak” o‘yinida ham shunday kuchli hayajonli vaziyatlarni kuzatish mumkin.

O‘yin jarayoni doimo o‘quvchilarning turli-tuman ichki kechinmalari: hayajon, mas’uliyat tuyg‘usi, g‘alaba nashidasi, yutuqlardan quvonish hissi yoki aksincha, mag‘lubiyatga uchragan damlarda xafa bo‘lish, umidsizlikka tushish kabilar bilan bog‘liq. Shu sababli bevosita o‘quv materialini o‘rganish bilan bo‘g‘liq qiziqarli mashq, topshiriqlarining dars jaryoniga olib kirilishi oq‘uvchida ijobiy tuyg‘ularni uyg‘otadi. Bu esa o‘quvchi faoliyatini muvaffaqiyatli tarzda maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

“Sokin” o‘yinlarda esa o‘quvchilar o‘yin qoidasidan kelib chiqqan holda maxsus so‘z yoki jummalarni tanlaydilar. Bunda ham ular: “Men bu ishni uddaladim”. “Shu ish mening ham qo‘limdan keladi”, degan tushunchadan quvonch hislarini tuyishi yoki muvaffaqiyatsizlikdan xafa bo‘lishi mumkin. Agar bola muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, unda yana bir bor shu o‘yinni takrorlash, yutish uchun o‘zining bor kuchini safarbar qilish istagi yuzaga keladi. Bunday o‘yinlar o‘quvchida qiyinchiliklarni yengib o‘tish quvonchini his etish ishtiyqini qo‘zg‘otadi. “Kim tezroq”, “Kim birinchi?” kabi musobaqa o‘yinlari shular jumlasidandir.

O‘yin davomida bolalar e’tiborini jalb qiladigan muhim narsa bu faoliyat usullarining oddiyliigi va hamma uchun tushunarlilikidir. O‘yin qoidasi har doim yengil, tushunarli va bajarishi oson bo‘lishi lozim. Bu o‘quvchilarga chet tilida so‘z yoki jummalarni ishlatishda har qanday hadikni yengishga yerdam beradi. Shunday yo‘l bilan o‘qitishning birinchi bosqichida bolalar jonli va jonsiz buyumlar nomini farqlashga o‘rganadilar. Misol uchun. “Kim kelyapti?” deb nomlanuvchi o‘yinda oq‘ituvchi insonning yoki hayvonning nomini aytib, “*kelyapti*” deydi. Agar narsa yuradigan jonli mavjudot bo‘lsa, u holda bolalar qo‘lini ko‘tarib oq‘ituvchi orqasidan “*kelyapti*” deb takrorlaydilar. Mabodo, narsa jonsiz bo‘lsa, qo‘llarini ko‘tarmay jim o‘tiraveradilar. o‘yinda bolalar ikki guruhga bo‘linadilar. Qaysi guruh ishtirokchilari iloji boricha kamroq, xato qilsa, shu guruh g‘olib, deb topiladi. Masalan, o‘qituvchi bolalarga qarab: *Akam kelyapti. O‘quvchi kelyapti, Mushuk kelyapti!. Stul kelyapti!, Daraxt kelyapti!*

Hassa kelyapti! kabilarni aytishi mumkin. Albatta, bu o‘yinning sharti juda sodda, biroq bu o‘yin vaqtida osongina xatoga yo‘l qo‘yish, adashish mumkin. Bu bolalarning yanada jonlashib, xursand bo‘lib ketishiga, hissiy holatining kuchayishi hamda diqqati va eshitish qobiliyatining o‘tkirlashishiga olib keladi.

Shunday qilib, didaktik o‘yinlarni ham o‘qitishning boshqa usul va vositalari bilan bir qatorga qo‘yish mumkin. Ammo o‘yin faqatgina o‘qitish ahamiyatiga ega bo‘lmay, balki o‘quvchilarning bilish qiziqishlarini shakllantirish vositasi bo‘lishi ham mumki hamdir.

O‘yinga tayyorgarlik ko‘rish paytida o‘quvchilar ko‘p hollarda har xil qo‘shimcha bilish faoliyatini bajaradilar.

O‘yin jarayonida ko‘pincha turli-tuman buyumlar, o‘yinchoqlar, rasmlar, kartochkalar, jadvallar, ko‘rgazmali qurollar, modellar, multimedialar, roliklar, xaritalar, tayyor ssenariylar, dialoglar, yodlangan she‘r parchalari, maqol va matallar kabilardan foydalaniladi. Oq‘uvchilar shu didaktik vositalarni tayyorlashga jalb qilinadi. Buning uchun ular turli manbalarga: badiiy asarlar, lug‘atlar, ma‘lumotnomalar, tarixiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarga murojaat qilishlari kerak. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchida o‘quv predmetiga bo‘lgan qiziqishni tarbiyalaydi.

Ta‘limiy o‘yinlarning o‘quvchi shaxsini tarbiyalash, xarakter xususiyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati juda katta. O‘yin jarayonida uyushqoqlik, sabr, izchillikka ega bo‘lgan harakatlar tizimini rejalashtira olishlik, o‘z xohishidan voz kechib, jamoaga, o‘yin qoidasiga bo‘ysuna olishlik kabi sifatlar rivojlanadi. Bu bolaning irodasini mustahkamlab, oldidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishida yordam beradi.

O‘yin paytida ba‘zan bolalar zaruratga qarab o‘z o‘rtog‘iga yon bosishi yoki ko‘maklashishi darkor. Bu ulardagi do‘stlik tuyg‘usini o‘stiradi. Guruh tarkibida o‘ynayotgan har bir o‘quvchi butun jamoa uchun mas‘ul bo‘lib, har qaysi o‘quvchi berilgan topshiriqni imkon boricha tezroq va yaxshiroq bajarishdan manfaatdor.

Demak, musobaqa o‘quvchilardagi ish qobiliyatining, bilish faoliyatining kuchayishiga olib keladi.

O‘yin bola ruhini yengillashtirishi bilan birga o‘z sinfdoshlari oldidagi mas‘uliyat hissini oshiradi.

O‘quvchilarning fikrlash jarayonini o‘stirishda o‘yinlar qiziqarli topshiriqlarning ahamiyati katta. O‘yin vaqtida tahlil, taqqoslash, guruhlashtirish, umumlashtirish kabi hamma fikrlash jarayonlari rivojlanib takomillashadi. O‘yin davomida berilgan savollarga javob topish, vazifani birinchi bo‘lib hal qilishga intilishning o‘zi o‘quvchida tafakkur va nutq faoliyatini yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, o‘zbek tili darslarida o‘yinning ahamiyati haqida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, shunday xulosaga kelish mumkin:

1) ta‘limiy o‘yin - o‘zbek tiliga o‘rgatishdagi o‘qitish usullaridan biri bo‘lib, darsda vaziyatini yuzaga keltirishga yordam beradi. Demak, o‘yin darsda o‘quvchi faolligini

oshirish vositasi;

2) o'quv materialining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga ola bilgan holda to'g'ri tashkil qilingan o'yin o'quvchining xotirasini mashq qildirib, nutq ko'nikmalari va malakasining hosil bo'lishiga, shuningdek, nutqiy kompetensiyalarning shakllanishida imkon yaratadi;

3) o'yin o'quvchi aqliy faoliyatining hamda diqqatining o'sishiga yordam beradi, fanni bilishga bo'lgan qiziqishini o'stiradi;

4) o'yin - o'quvchi sustkashligini yengish usullaridan biri;

5) o'yin o'quvchilarda intizom, uyushqoqlik, mas'uliyat va jamoatchilik kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Pozilova. O'zbek tili darslarida o'quv o'yinlari. Uslubiy qo'llanma.Toshken avtomobil-yo'llar instituti. 2002-y.
2. П.М. Баев. Играем на уроках русского языка. М., 1989
3. С.Л. Рубинштейн. Основы общей психологии М., 1992.
4. A. Hojiev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. T., 1974.
5. O. Madayev, T. Sobitova. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., 2019.
6. Sh. Rahmatullayev. O'zbek rtili antonimlarining izohli lug'ati. T. 1980.
7. D. Xidoyatova va b. 2-sinf. Darslik. T., 2021.
8. Kitobim-oftobim. Sinfdan tashqari o'qish. 1-,2-,3-,4- sinflar. T., 2021.
9. A.Rafiyev va b. O'zbek tili. 3-sinf. Darslik. T., 2021.
10. A. Rafiyev va b.O'zbek tili. 4-sinf. Darslik. 2021